



XALQ DEPUTATLARI QO'SHTEPA TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2024-yil 8-aprel

VI-67-40-11-157-K/24

Qo'shtepa tumani

**Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan loyihalarni tanlab olish va
"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" mablag'lari hisobidan g'olib loyihalarga
mablag' ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi "Tashabbusli byudjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risida"gi KQ-666-IV-sonli qarorlariga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan loyihalarni tanlab olish va "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" mablag'lari hisobidan g'olib loyihalarga mablag' ajratish maqsadida, Xalq deputatlari Qo'shtepa tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatini Kengashining 2024-yil 30-yanvar kungi "Tashabbusli byudjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi KQ-666-IV-sonli qarorlari asosida joriy yilning 1-fevralidan 5-apreligacha qadar o'tkazilgan uch bosqichdan iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo'yicha tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i I.Akbarovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Ochiq byudjet" axrot portalida ENG KO'P ovoz olgan hamda avtomatik tarzda g'olib sifatida tanlab olingan loyihalar ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Ushbu takliflarni moliyalashtirish bo'yicha:

G'olib deb topilgan loyihalarni "Manzilli ro'yhat" 1-ilovaga muvofiq;

Jihozlash tadbirlari bo'yicha xarid qilinadigan tovar (xizmat)lar reyestrilari 2, 3-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda,

- Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan loyihalarni amalga oshirish bo'yicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining ko'payishi yoki loyihaning o'zgartirilishi bilan bog'liq o'zgartirishlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaslik;

- Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yoʻnaltiriladigan tuman byudjeti mablagʻlari tuman hokimligi qoshida ochilgan “Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi” shaxsiy gʻazna hisobvaragʻida jamlangan mablagʻlarni boshqa maqsadlarga sarflanishi taqiqlanishi belgilab qoʻyilsin.

3. Tasdiqlangan Manzilliy roʻyxat asosida:

- Tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi (I.Akbarov) tanlab olingan tadbirlarni moliyalashtirilishini taʼminlash maqsadida, buyurtmachi tashkilotlariga tegishli mablagʻ manbaasi boʻyicha (4017) “Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi” maxsus hisob raqamlari ochilishini;

- tuman hokimligi hisobxonasi (A.Tojiboyev) Jamgʻarma mablagʻlari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablagʻlar yoʻnaltirilishini;

- buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablagʻlarni loyiha-smeta xujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar boʻyicha Xalq deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi Ishchi komissiyaga maʼlumot kiritib borilishini taʼminlasin.

4. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (Y.Qosimova) va tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi (I.Akbarov) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va “gʻolib” deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirishi hamda amalga oshirilishi lozim ishlar boʻyicha maʼlumotlarni “Ochiq byudjet” portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini taʼminlasin.

5. Taʼmirlash tadbirlari boʻyicha va jihozlash tadbirlari boʻyicha xarid qilinadigan tovar (xizmat)larni toʻliq amalga oshirilishiga buyurtmachi tashkilotlar masʼul hisoblanadi.

6. Mazkur bayon ijrosini taʼminlash va nazorat qilish doimiy komissiya aʼzolari zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



Sh.Sharapov

Xalq deputatlari Qo'shtepa tumani Kengashining
2024-yil 8-apreldagi
VI-67-40-11-157-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qo'shtepa tumani bo'yicha 2024-yil 1-bosqichida g'olib bo'lgan loyihalarni "Fuqarolar tashabbusi jamg'arma"si hisobidan moliyalashtirish bo'yicha

MANZILLI RO'YXAT

T/r	Tadbirning xos (ID) raqami	Obyekt aniq manzili	Balansda saqlovchi korxonasi nomi	Amalga oshirish lozim bo'lgan tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish qiymati	Buyurtmachi tashkilot nomi
Jami		xxx	xxx	xxx	15 236 800 000	xxx
1	032310618011	Qo'shtepa tuman O'rta O'qchi MFY Shukrona ko'chasi	Qo'shtepa tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Shukrona ko'chasini 3050 metr qismini shag'allashtirish, asfaltlashtirish hamda piyodalar yo'li barpo etish	1 360 000 000	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati UK
2	032309539011	Qo'shtepa tuman Katta Beshka MFY Bo'g'imaydon ko'chasi 56-uy	Ixtisoslashtirilgan ta'lim musasalari agentligi tizimidagi Qo'shtepa ixtisoslashgan maktabi	Prezident ta'lim muassasalari tizimidagi Qo'shtepa ixtisoslashgan maktabiga o'quvchilarni fan olimpiyadalariga va ularni kasb hunarga yo'naltirish uchun zavod, fabrikalarga olib borish uchun qatnov kam bo'lgan hududlarga olib borish va olib kelish uchun avtobus sotib olish.	1 250 000 000	Ixtisoslashtirilgan ta'lim musasalari agentligi tizimidagi Qo'shtepa ixtisoslashgan maktabi

3	032324322011	Qo'shtepa tuman Fayz MFY	Qo'shtepa tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Fayz MFY Zarafshon, Oydinko'1, Yangiturmish, Fayzlik ko'chalarini asfaltlash	1 360 000 000	Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati UK
4	032305938011	Qo'shtepa tumani Loyson MFY Mulkobod ko'chasi 41-uy	Qo'shtepa tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	22-umumiy o'rta ta'lim maktabiga qo'shimcha 12 xonalik (xona o'lchami o'quvchi soni 35 ta bola sig'imli) qo'shimcha bino qurish va quyosh paneli o'rnatish	1 360 000 000	Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati DUK
5	032324938011	Qo'shtepa tuman Dexqonobod MFY Sihatgoh ko'chasi 238-uy	Qo'shtepa tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	45-umumta'lim maktabiga o'quvchilar xamda maxalla yoshlari uchun usti yopiq va ochiq suniy futbol maydonchasi, Quyosh paneli, unversal sport maydoncha, xamda yuvinish va kiyinish binosini qurish	1 360 000 000	Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati DUK
6	032301700011	Qo'shtepa tuman Shodlik MFY Mevazor ko'chasi 1-uy	Qo'shtepa tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	20-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabiga o'quv jixozlari sotib olish	931 000 000	Qo'shtepa tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi
7	032319179011	Qo'shtepa tuman Yo'ldoshobod MFY B.Marg'iloniy ko'chasi 29-uy	Qo'shtepa tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	8-maktabda Usti ochiq va usti yopiq sun'iy maydon xamda yuvinish- kiyinish xonalarini qurish va Quyosh paneli o'rnatish	1 360 000 000	Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati DUK

8	032308639011	Qo'shtepa tuman Sohibkor MFY Sohibkor ko'chasi 5-uy	Qo'shtepa tumani Tibbiyot birlashmasi	Respeblika Tez tibbiy Yordam farg'ona xududiy filiali Qo'shtepa tuman tez tibbiy yordam bo'limiga yangi bino qurish, ta'mirlash va quyosh paneli o'rnatish	1 360 000 000	Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati DUK
9	032332787011	Qo'shtepa tuman Soybo'yi MFY Archazor ko'chasi 75-uy	Qo'shtepa tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	Qoshtepa tumani Soyboyi m.f.y 40- umumta'lim maktabiga sinf xonalarini jixozlash maqsadida parta stul elektron doska va sinf xonalariga kuzatuv kameralari o'rnatish	815 800 000	Qo'shtepa tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi
10	032329572011	Qo'shtepa tuman Oqtepa MFY Nayman ko'chasi 154-uy	Qo'shtepa tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	13 maktab xududidagi katta stadionni zamonaviy xamma sharoitlarga ega stadionga aylantirish Tungi chiroqlar o'rnatish (Maysasini almashtirish Tomoshabinlar uchun o'rindiqlik tashkil qilish Kiyinish-yechinish, yuvinish xonasi va quyosh paneli o'rnatish xamda zarur jixozlar bilan ta'milash	1 360 000 000	Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati DUK
11	032330482011	Qo'shtepa tuman Oqtepa MFY Nayman ko'chasi	Qo'shtepa tumani Elektr ta'minoti korxonasi	Nayman mahallasi elektr ta'minotini yaxshilash zarur. Elektr ta'minotini yaxshilash uchun Transformator, ko'cha chiroqlari sip kabellar, stolbalar kerak.	1 360 000 000	Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi
12	032305706011	Qo'shtepa tuman Qo'rg'oncha MFY Yakkatut ko'chasi 14-uy	Qo'shtepa tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	Qo'shtepa tumani Qo'rg'oncha mfy Yakkatut ko'chasida joylashgan 28- umumiy o'rta ta'lim maktabi tashqi tomon devor qismini panjaralashtirish, maktab sinf xonalarini pollashtirish, maktab	1 360 000 000	Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati DUK

				hududiga asfalt yotqizish, maktab binolari tashqi ko'inishi (fasadi)ni tamirlash, maktabga quyosh panellarini o'rnatish		
--	--	--	--	---	--	--

Xalq deputatlari Qo'shtepa tumani
Kengashining
2024-yil 8-apreldagi
VI-67-40-11-157-K/24 -son qaroriga
2-ilova

**Qo'shtepa tumani bo'yicha o'tkazilgan tashabbusli budjet jarayoni
yakunlariga ko'ra g'olib bo'lgan ID 032301700011 loyihani amalga oshirish
bo'yicha xarid qilinadigan tovar (xizmat)lar**

REYESTRI

So'mda

T/R	Tovar (xizmat)lar nomi	Soni	Bozor narxi	Summasi
x	1-4 sinf til o'rganish xonasi uchun jihozlar			
1	O'quvchi stoli №3 (1 dona stol, 1 dona stul)	30	1 000 000	30 000 000
2	O'quvchi stoli №4 (1 dona stol, 1 dona stul)	30	1 000 000	30 000 000
3	Elektron doska (kompyuter texnikasi va o'rnatish moslamasi bilan)	10	20 000 000	200 000 000
4	O'qituvchi stoli	8	1 000 000	8 000 000
5	O'qituvchi stuli	8	500 000	4 000 000
6	Sinf doskasi	4	2 000 000	8 000 000
X	5-11 sinf til o'rganish xonasi uchun jihozlar			
7	Elektron doska (kompyuter texnikasi va o'rnatish moslamasi bilan)	5	20 000 000	100 000 000
x	5-11 sinf xonalari			
8	O'quvchi stoli №5 (1 dona stol, 2 dona stul)	100	1 200 000	120 000 000
9	O'quvchi stoli №6 (1 dona stol, 2 dona stul)	100	1 200 000	120 000 000

10	Elektron doska (kompyuter texnikasi va oʻrnatish moslamasi bilan)	10	20 000 000	200 000 000
11	Oʻqituvchi stoli	8	1 000 000	8 000 000
T/R	Tovar (xizmat)lar nomi	Soni	Bozor narxi	Summasi
12	Oʻqituvchi stuli	8	500 000	4 000 000
x	Boshlangʻich taʼlim xonalari uchun jihozlar (1–4-sinf)			
13	Javon (kitoblar, oʻquv qurollari va anjomlari uchun)	3	2 000 000	6 000 000
14	Sinf doskasi	10	2 000 000	20 000 000
15	Oʻqituvchi stoli	10	1 000 000	10 000 000
x	“Informatika va axborot-texnologiyalari” xonasi uchun jihozlar:			
16	Printer (3v 1)	1	4 000 000	4 000 000
17	Printer rangli	1	5 000 000	5 000 000
x	Metod xonasi uchun jihozlar			
18	Ish stoli va stuli (Oʻqituvchi stoli)	2	2 000 000	4 000 000
19	Kitob javoni	2	2 000 000	4 000 000
x	Kuzatuv kameralari			
20	Kuzatuv kameralari	20	2 300 000	46 000 000
Loyihani amalga oshirish jami qiymati				931 000 000

Xalq deputatlari Qo'shtepa tumani
Kengashining
2024-yil 8-apreldagi
VI-67-40-11-157-K/24 -son qaroriga
3-ilova

**Qo'shtepa tumani bo'yicha o'tkazilgan tashabbusli budjet jarayoni yakunlariga
ko'ra g'olib bo'lgan ID 032332787011 loyihani amalga oshirish bo'yicha xarid
qilinadigan tovar (xizmat)lar**

REYESTRI

So'mda

T/R	Tovar (xizmat)lar nomi	Soni	Bozor narxi	Summasi
x	1-4 sinf til o'rganish xonasi uchun jihozlar			
1	Javon (o'qituvchi hujjatlari va kiyimi uchun javon)	8	1 200 000	9 600 000
2	Sinf doskasi	4	1 800 000	7 200 000
3	O'qituvchi stoli	8	1 500 000	12 000 000
4	O'qituvchi stuli	8	500 000	4 000 000
5	O'quvchi stoli №4 (1 dona stol, 1 dona stul)	40	1 200 000	48 000 000
6	Elektron doska (kompyuter texnikasi va o'rnatish moslamasi bilan)	4	20 000 000	80 000 000
x	5-11 sinf til o'rganish xonasi uchun jihozlar			
7	Javon (o'qituvchi hujjatlari va kiyimi uchun javon)	10	1 200 000	12 000 000
8	Sinf doskasi	10	1 800 000	18 000 000
9	O'qituvchi stoli	10	1 200 000	12 000 000
10	O'qituvchi stuli	10	500 000	5 000 000
11	O'quvchi stoli №6 (1 dona stol, 1 dona stul)	30	1 200 000	36 000 000

12	Elektron doska (kompyuter texnikasi va oʻrnatish moslamasi bilan)	5	20 000 000	100 000 000
x	5–11 sinf xonalari			
T/R	Tovar (xizmat)lar nomi	Soni	Bozor narxi	Summasi
13	Javon (kitoblar, oʻquv qurollari va anjomlari uchun)	10	1 200 000	12 000 000
14	Javon (oʻqituvchi hujjatlari va kiyimi uchun javon)	10	1 200 000	12 000 000
15	Sinf doskasi	20	1 800 000	36 000 000
16	Oʻquvchi stoli №6 (1 dona stol, 2 dona stul)	100	1 200 000	120 000 000
17	Elektron doska (kompyuter texnikasi va oʻrnatish moslamasi bilan)	10	20 000 000	200 000 000
x	Boshlangʻich taʼlim xonalari uchun jihozlar (1–4-sinf)			
18	Javon (kitoblar, oʻquv qurollari va anjomlari uchun)	10	1 200 000	12 000 000
19	Elektron doska (kompyuter texnikasi va oʻrnatish moslamasi bilan)	4	20 000 000	80 000 000
Loyihani amalga oshirish jami qiymati				815 800 000